

AKSIYA O‘TKAZISH QOIDALARI

«NBU bilan birga o‘yin mihitini yarating»

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Mazkur Qoidalar « **NBU bilan birga o‘yin mihitini yarating** » aksiyasini (keyingi o‘rinlarda — «Aksiya») o‘tkazish tartibini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya tashkilotchisi — “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ (keyingi o‘rinlarda — «Bank»)
- 1.3. Aksiya Milliy mobil ilovasi orqali Visa FIFA 2026 bank kartalarini rasmiylashtirishni rag‘batlantirish maqsadida o‘tkaziladi.
- 1.4. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi.

2. Aksiya o‘tkazish muddati

- 2.1. Aksiya 2026-yil 1-maydan 2026-yil 30-iyungacha (shu jumladan) amal qiladi.
- 2.2. Sovg‘alar fondi tugagan taqdirda, Aksiya muddatidan oldin yakunlanishi mumkin.

3. Aksiya ishtirokchilari

- 3.1. Aksiya ishtirokchilari — ushbu Qoidalarga muvofiq Visa FIFA 2026 kartasini rasmiylashtirgan jismoniy shaxslar—Bank mijozlari
- 3.2. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy va bepul.

4. Aksiyada ishtirok etish shartlari

- 4.1. Aksiyada ishtirok etish uchun quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilishi lozim:
 - Visa FIFA 2026 kartasini rasmiylashtirish;
 - buyurtmani Milliy mobil ilovasi orqali amalga oshirish;
 - kartani yetkazib berish usuli sifatida Toshkent shahri bo‘yicha yetkazib berishni tanlash.
- 4.2. Ushbu Qoidalarning 4.1-bandida ko‘rsatilgan shartlar bajarilganda, ishtirok avtomatik tarzda amalga oshiriladi.
- 4.3. Promokodlardan foydalanish yoki alohida ro‘yxatdan o‘tish talab etilmaydi.

5. Sovg‘alar fondi va ularni taqdim etish tartibi

- 5.1. Aksiya sovg‘alar fondi brendlangan mahsulotlardan (merch) iborat.
- 5.2. Sovg‘a taqdim etish shartlari:
 - bir ishtirokchi faqat bitta sovg‘a olishi mumkin;
 - sovg‘a karta yetkazib berilganda taqdim etiladi;

- sovg'a karta emas, balki onlayn buyurtma va yetkazib berish faktiga bog'langan.

5.3. Sovg'alar soni cheklangan.

5.4. Sovg'alar fondi tugagan taqdirda, Bank qo'shimcha ogohlantirishsiz sovg'a berishni to'xtatish huquqiga ega.

6. Ishtirokchilarni xabardor qilish tartibi

6.1. Aksiya haqidagi ma'lumotlar quyidagi manbalarda joylashtiriladi:

- Milliy mobil ilovasida;
- Bankning rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida;
- boshqa reklama materiallarida.

6.2. Milliy mobil ilovasida karta yetkazib berish yo'li bilan rasmiylashtirilganda ishtirokchini push-xabarnoma orqali xabardor qilish nazarda tutilgan.

6.3. Buyurtma tasdiqlanganda va yetkazib berish tanlanganda, ishtirokchiga sovg'a taqdim etilishi haqida ma'lumotni o'z ichiga olgan push-xabarnoma yuboriladi.

7. Boshqa shartlar

7.1. Bank ushbu Qoidalarga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek Aksiyani istalgan vaqtda to'xtatish yoki bekor qilish huquqiga ega.

7.2. Aksiyada ishtirok etish ushbu Qoidalarga to'liq rozilikni anglatadi.

7.3. Bank o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Aksiyada ishtirok etish imkoni bo'lmagan holatlar uchun javobgar emas.

« NBU bilan birga o'yin mihitini yarating »

aksiyasi qoidalariga

№1 ilova

Aksiya sovg'alar fondi

Aksiya doirasida quyidagi sovg'alar fondi shakllantiriladi:

№ Sovg'a nomi	Miqdori (dona)
1 Stress-ball	595
2 Alyuminiy flaga	100
3 Sharf (scarf)	350
4 Braslet (full colour wrist band)	105

Jami sovg'alar fondi: 1 150 dona brendlangan mahsulot.

Sovg'alar fondidan foydalanish tartibi

1. Sovg'alar Milliy mobil ilovasi orqali rasmiylashtirilgan Visa FIFA 2026 kartasi yetkazib berilganda taqdim etiladi.
2. Har bir ishtirokchi faqat bitta sovg'a olish huquqiga ega.
3. Sovg'a turi Bank tomonidan mavjud zaxiradan kelib chiqib mustaqil belgilanadi, tanlash imkoniyati mavjud emas.
4. Sovg'alar to'liq tugaguniga qadar beriladi.
5. Sovg'alar tugagandan so'ng Bank qo'shimcha xabarsiz ularni berishni to'xtatish huquqiga ega.